

 [Sahifani PDF tarzda yuklab olish \(57 Kb\)](#)  [Versiyasi](#)  [Sahifani doc tarzda yuklab olish \(57 KB\)](#)

## **"Umid nihollari-2018" sport musobaqalarining ommaviyligini yanada oshirish, yoshlar o`rtasida sog`lom turmush tarzini har tomonlama targ`ib qilish, joylarda barpo etilgan zamonaviy sport majmularidan samarali foydalanishni ta`minlash maqsadida**

"Umid nihollari-2018" sport musobaqalarining ommaviyligini yanada oshirish, yoshlar o`rtasida sog`lom turmush tarzini har tomonlama targ`ib qilish, joylarda barpo etilgan zamonaviy sport majmularidan samarali foydalanishni ta`minlash maqsadida:

1. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 14 martdagি 199-f-sonli Farmoyishi ijro uchun rahbarlikka olinsin.
  2. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur farmoyishi bilan:
    - a) Qoraqalpog`iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida "Umid nihollari-2018" sport musobaqalarining final bosqichlari 2018 yil mart oyining ohirgi o`n kunligida o`tkazilishi, g`olib va sovrindor bo`lgan o`quvchilarini taqdirlash tadbirlari 14-19 may kunlari "Yoshlik va sport bayrami" sifatida tashkil etilishi;
    - b) "Umid nihollari-2018" sport musobaqalarining final bosqichlari g`olib va sovrindorlarini taqdirlash tadbirlarini hududlarda o`tkazish bo`yicha respublika tashkiliy ko`mitasi (keyingi o`rninda Respublika tashkiliy ko`mitasi deb ataladi) tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;
  - v) Quyidagilar:

sport musobaqalarining respublika final bosqichlari bo`lib o`tadigan hududlar va u erda joylashgan infratuzilma ob`ektlarini talab darajasida tayyorlash va zamonaviy asosda jihozlanishini ta`minlash;

sport musobaqalari, madaniy-ma`rifiy tadbirlar o`tadigan hamda qatnashchilar yashaydigan joylarda jamoat va transport harakati xavfsizligini ta`minlash choralarini ko`rish;

sport musobaqalari davomida har qaysi ishtirokchining qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy g`urur va iftixon tuyg`ularini kamol toptirishga xizmat qiladigan madaniy-ma`rifiy tadbirlar dasturini amalga oshirish;

yoshlarda sportga bo`lgan havas va intilishni, jamiyatimizda sog`lom turmush tarzi tamoyillarini kuchaytirish, o`quvchi-yoshlarni sportga keng jalb etishga doir targ`ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish Respublika tashkiliy ko`mitasining asosiy vazifalari etib belgilanganligi;

  - g) "Umid nihollari-2018" sport musobaqalarining final bosqichlari g`olib va sovrindorlarini taqdirlash tadbirlarini tashkil etish reja-jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;
  - d) Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari 5 kun muddatda tadbirlarni tashkil etish va o`tkazish bo`yicha Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari raisligida mazkur farmoyishning 1-ilovasida ko`rsatilgan vazirlik va idoralarning hududiy bo`linmalari rahbarlaridan iborat tarkibda hududiy tashkiliy ishchi guruhlarini tuzish topshirilganligi;
  - e) Respublika tashkiliy ko`mitasi (B.Akmalov) o`n besh kun muddatda Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan quyidagilarni nazarda tutuvchi hududiy chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqib, tasdiqlanishini ta`minlash; tadbirlar o`tkaziladigan sport majmualari infratuzilmasini talab darajasida tayyorlash, bino va inshootlarni bezash;
  - tadbirlarni hududlardagi zamonaviy sport majmularida o`quvchilar xotirasida bir umr saqlanib qoladigan "Yoshlik va sport bayrami" sifatida yuqori saviyada tashkil etish va o`tkazish;
  - tadbirlarda jahon va qit`a championlari, olimpiada g`oliblari hamda sovrindorlarining ko`rgazmali chiqishlarini, taniqli san`at ustalari, yosh san`atkorlar, estrada xonandalari hamda badiiy jamoalar ishtirokidagi kontsert dasturini tashkil etish topshirilganligi;
  - j) O`zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Sog`liqi saqlash vazirligi hududiy tashkiliy ishchi guruhlar bilan birlgilikda tadbirlar o`tkaziladigan vaqtida jamoat transporti harakati va yong`in xavfsizligini ta`minlash hamda tez tibbiy yordam ko`rsatishni tashkil etish bo`yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishi;
  - z). Respublika tashkiliy ko`mitasi hududiy tashkiliy ishchi guruhlar bilan birlgilikda "Umid nihollari-2018" sport musobaqalarining final bosqichlarida sovrinli o`rnarni ko`lga kiritgan jamoa va o`quvchilarini esdalik sovg`alari bilan, umumjamoa hisobida 1-o`rinni egallagan tuman (shaxar) jamoalarini O`zbekiston Respublikasi Prezidenti sovg`asi "Damas" rusumli avtomobil` bilan taqdirlashni tashkil etishi;
- "Damas" rusumli avtomobillar va tadbirlarning esdalik sovg`alari harid qilish harajatlarini moliyalashtirish O`zbekiston "Yoshlik" jismoniy tarbiya va sport jamiyat Markaziy Kengashining byudjetdan tashqari mablag`lari hisobidan amalga oshirilishi inobatga olinganligi;
- i) O`zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi va O`zbekiston Milliy axborot agentligiga "Umid nihollari-2018" sport musobaqalarining final bosqichlarida g`olib va sovrindor bo`lgan o`quvchilarini taqdirlash marosimini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish tavsiya etilganligi ma`lumot uchun qabul qilinsin.
  3. "Umid nihollari-2018" sport musobaqalarining final bosqichlari g`olib va sovrindorlarini taqdirlash tadbirlarini o`tkazish bo`yicha respublika

tashkiliy ko`mitasi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Qoraqalpog`iston Respublikasi «Umid nihollari-2018» sport musobaqalarining final bosqichlari g`olib va sovrindorlarini taqdirlash tadbiri 2018 yil 19 may kuni Nukus shahar amfiteatrida “Yoshlik va sport bayrami” sifatida tashkil etilsin.

5. Quyidagilar Respublika tashkiliy ko`mitasining asosiy vazifasi etib belgilansin:

- tadbirlar o`tkaziladigan sport majmualari infratuzilmasini talab darajasida tayyorlash, bino va inshootlarni bezash;

- tadbirlarni hududlardagi zamonaviy sport majmularida o`quvchilar xotirasida bir umr saqlanib qoladigan “Yoshlik va sport bayrami” sifatida yuqori saviyada tashkil etish va o`tkazish;

- tadbirlarda jahon va qit`a championlari, olimpiada g`oliblari hamda sovrindorlarining ko`rgazmali chiqishlarini, taniqli san`at ustalari, yosh san`atkorlar, estrada xonandalari hamda badiiy jamoalar ishtirokidagi kontsert dasturini tashkil etish.

6. Qoraqalpog`iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Favkulodda vaziyatlar vazirligi, Sog`liqni saqlash vazirligi tashkiliy qo`mita tarkibi bilan birgalikda tadbirlar o`tkaziladigan vaqtida jamoat transporti harakati va yong`in xavfsizligini ta`minlash hamda tez tibbiy yordam ko`rsatishni tashkil etish bo`yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

7. Qoraqalpog`iston teleradiokompaniyasi va Qoraqalpog`iston axborot agentligiga “Umid nihollari-2018” sport musobaqalarining final bosqichlari g`olib va sovrindor bo`lgan o`quvchilarni taqdirlash marosimini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish tavsiya etilsin.

8. Qoraqalpog`iston Respublikasi Xalq ta`lim vazirligi, Moliya vazirligi bilan birgalikda “Umid nihollari-2018” sport musobaqalarining final bosqichida sovrinli o`rnlarni qo`lga kiritgan jamoa va o`quvchilarni esdalik sovg`alari bilan taqdirlashni tashkil etsin.

9. Mazkur farmoyish ijrosini nazorat qilish Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o`rnbosari M.Jumanov, Qoraqalpog`iston Respublikasi Xalq ta`limi vaziri A.Ayapov va Jismoniy tarbiya va sport vaziri G`.Bayniyazov zimmalariga yuklatilsin.

## **Qoraqalpog`iston Respublikasi**

**Vazirlar Kengashining Raisi**

**Q.Sariev**

*Ko'rib chiqildi:*

|                      |                                       |
|----------------------|---------------------------------------|
| <input type="text"/> | <input type="button" value="Izlash"/> |
|----------------------|---------------------------------------|

- 
- 
- 

[Vazirlar Kengashi Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)  
[Vazirliklar va idoralar Shahar va tuman hokimliklari](#)  
[Hujjatlar Respublika mehmonlariga Elektron hukumat Interaktiv davlat xizmatlar](#)